

“ODAM BO‘LISH QIYIN” VA “AVLIYO SERGEY” ASARLARI QIYOSIY TAHLILI

G‘aybullayeva Ruxshona Qahramon qizi

QarDU, Filologiya fakulteti 025-30-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Odam bo‘lish qiyin” asarining bosh qahramoni Abdullaning murakkab ruhiy kechinmalari, ichki ziddiyatlari va hayotiy sinovlari tahlil qilinadi. Qahramon boshidan kechirgan voqealar orqali insonning nafs, iymon va axloq o‘rtasidagi kurashi yoritib beriladi. Shuningdek, Abdulla obrazi jahon adabiyotidagi Lev Tolstoyning qalamiga mansub “Avliyo Sergey” asarining bosh qahramoni Sergey ota obrazi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Har ikki obraz misolida insonning o‘z nafsiga qarshi kurashi, ruhiy iztiroblari va ma’naviy tanlovlari ochib beriladi. Maqolada inson kamoloti yo‘lida ichki iroda va axloqiy qarorlarning o‘rni muhim ekani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: roman, obraz, nafs, voqealar rivoji, personaj, axloq, qiyosiy tahlil.

“Ma’rifatchilik adabiyotida badiiy adabiyot tarbiya vositasi sifatida talqin qilinadi, roman esa hayotni atroflicha badiiy tahlil etish va yaxlit badiiy konsepsiyani ifodalash imkoniyati bilan ajralib turadi. Bu qarash roman janrining yoshlar dunyoqarashi va axloqiy mezonlarini shakllantirishdagi salohiyatini ko‘rsatadi”¹. Shu jihatga ko‘ra O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” romani ham yoshlarning ma’naviy axloqiy iztiroblarini yoritib berishga xizmat qiladi. Asarning Abdulla, Gulchehra, Samad, Sayyora singari obrazlari hozirgi kundagi yoshlarning ruhiy holati, qiyofasini o‘zida aks ettiradi. Ular orqali biz ko‘nglida kiri yo‘q beg‘ubor bolalardan, o‘z orzulari, ehtirolari bilan yuzma-yuz duch kelgan insonlar holatiga ham guvoh bo‘lamiz va voqealar rivoji orqali buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Hozirda aksariyat insonlar ushbu asarni o‘qib bo‘lganlaridan so‘ng Abdullani barcha voqealarga gunohkor deb hisoblaydi. Ba’zilar unda hech qanday tuyg‘ular yo‘q, deb ta’kidlaydilar. Ammo bu fikr to‘g‘ri emas, chunki odamda tuyg‘u bo‘lmasligi mumkin emas. Shuning uchun Abdullani to‘liq qoralash ham to‘g‘ri emas, negaki u yoshlik chog‘idayoq samimiy, mehribon va sodda bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Uning juda ko‘ngilchan ekanligini ko‘rsatgan voqealardan biri ovga chiqqanidir. Uning birinchi marta ovga chiqqani uchunmi, u ovning bunday bo‘lishini xayoliga ham keltirmagan edi. Otilgan o‘lja o‘sha zahotiyoyoq o‘ladi deb o‘ylagan edi. Ammo, u ko‘zini tog‘asining belida likillab turgan bedanadan uzolmas, o‘q teshib majaq bo‘lgan tumshug‘i ko‘nglini aynitardi. “Endi sayramaydi, endi pati yulinadi, yuvilib, tozalanib oshga bosiladi. Kim

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004. – B. 216-217.

yer ekan? “Men yemayman²” - degan vijdoni pok, rahmdil insondan qanday qilib bunday vijdonsiz qarorlarni qabul qiladigan insonga aylanish mumkin. O‘zi aybni qilib o‘zini oqlashga harakat qiladi: “Qizlar o‘zi shunaqa bo‘larmikan? Juda ham bo‘shlik qiladi-da... Agar rozi bo‘lmaganda, mening jahlim chiqmasdi. Albatta ozgina xafa bo‘lardim, lekin ozgina xolos³”, - deb barcha aybni Gulchehraga yuklaydigan darajadagi insonga aylanishiga nima sabab bo‘lishi mumkin. Shu o‘rinda fransuz ma‘rifatparvar faylasufi Jan Jak Russoning “Insonlar tabiatan yaxshi bo‘lib tug‘iladi, lekin jamiyat uni buzadi⁴”, - degan fikrlari xuddi Abdullaga aytilganday go‘yo, negaki Abdulla yoshligidan turli xil ertaklar ta‘sirida o‘sgan va u ertakdagi qahramonlarga o‘xshashga harakat qilar, ozoda kiyinar, sho‘xlik qilmas, kattalarning so‘zini qaytarmas edi. Maktabda ham u hamma o‘qituvchilarga yoqib qolgandi, unga hammaning havasi kelardi. U har doim har yerda ko‘zga tashlanib turardi. Iloji boricha kattalarga yoqishga harakat qilar edi. Shuning uchun uyga kirayotganda, albatta, yuz-qo‘lini tozalab, kiyimlarini qoqib kirardi. U 7-sinfgacha har yili maqtov qog‘ozi olardi, lekin 7-sinfda...

U shu darajaga yetdiki, eng sevimli ona tili fani ham uning ko‘nglini aynitadigan bo‘ldi. Jurnalda borgan sari baholari pasaya boshladi, hattoki diktantdan ikki ham oldi. Shundan keyin u boshqa fanlardan ham nafratlanadigan bo‘ldi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Abdulla yomon emas edi, uni atrofdagi insonlar shu holatga tushishiga sababchi bo‘ldilar. Bunday insonlarga misol qilib, uning o‘qituvchisi, otasining “yaqin do‘sti” Husanxon akani ko‘rsatish mumkin. Abdullaning o‘zidan ikki-uch yosh katta, juda olifta kiyinadigan, charm portfel tutadigan In‘omjonni doskaga chiqarganda tutilib qolsa, urishmas, sekingina: “Mayli, o‘tir kelasi safar so‘rayman” deyishlari Abdullaga yoqmasdi va bir kun Abdullaning otasi: “O‘g‘lim, Husanxon akangni anchadan beri kelmadi. Juda sog‘indim. Ko‘rsang aytgin, bir kun kelib ketsin” - deydi.

Abdulla bu gaplarni Husanxon akaga aytganda, u shunchaki yoqar-yoqmas “mayli” deb sinfga kiritganini va vaqtim yo‘q deb aytganini, lekin In‘omjonning oldidan o‘tayotganda uning otasining hol-ahvolini so‘rab, uni borib ko‘rmoqchi ekanini aytganda hamda anchadan beri vaqt topolmay sog‘lig‘ini so‘rolmayotganini aytadi. Bularni ko‘rib turgan Abdulla esa nima qilishini bilmay qolib, bo‘lgan voqealar uning suyak-suyagidan o‘tib ketadi. Abdulla bu gaplar uning o‘zini ham, uyda yotgan kasal otasini ham bebro‘ qilishganligini, xo‘rlanganini his qildi. Shundan boshlab Abdulla Husanxon akani o‘zining ashaddiy dushmanidek yomon ko‘rib qoldi. Shundan so‘ng u bunday xorliklar, kamsitishlarga duch kelmaslik uchun o‘z manfaatini hamma narsadan ustun qo‘yadigan bo‘ldi. Shu tufayli ham u o‘ziga o‘zi: “Gulchehra meni yaxshi ko‘radi, biroq u bilan turmush qursam nima bo‘ladi?” Buni tasavvur qilishga

² Umarbekov O‘. Odam bo‘lish qiyin. – Toshkent: Turon nashriyoti tahririyati, 2023. – B.22.

³ Umarbekov O‘. Odam bo‘lish qiyin. – Toshkent: Turon nashriyoti tahririyati, 2023. – B.198.

⁴ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – B.156.

urinib ko'radi, ammo o'zini boloxonali uydan boshqa hech narsa ko'z oldiga keltira olmas edi. O'ziga taskin beruvchi shiori: "Odam o'z hayotining yaxshi bo'lishini istasa, yaxshi turmush kechirgisi kelsa-buning nimasi yomon?"⁵ der edi. Sayyoraning otasi akademik qanday qilib u Sayyoradan voz kechishi mumkin. Otasining qo'lida ikkalovi ishlasa, bir xonada o'tirishsa, undan voz kechsa... Tursunali aka uning hayotini buzib yuborishi ham mumkin. Abdulla har xil o'ylovlar qarshisida qoladi va u Gulchehraning qisqa muddat ichida bunchalik muvaffaqiyatga erishishini kutmagan edi, biroq bunday xayollar ham Abdullaning ko'nglini ko'tarmadi. U Sayyorani alday olmayman derdi, aslida esa u o'z manfaatidan voz kechishi mushkul edi.

Abdulla obrazi orqali nafs oldidagi ojiz insonlar yoritib beriladi. U qilgan xatosidan to'g'ri xulosa chiqarmay, yana shu yo'lni tanlaydi. Bu holat esa insonning ba'zan bir lahzalik o'zini boshqara olmasligi qanday katta oqibatlariga olib kelishini ko'rsatadi. Asardagi qahramonning bir lahzalik o'zini boshqara olmasligi natijasida yuzaga kelgan holat jahon adabiyoti namunalarida ham uchraydi. Xususan, Lev Tolstoyning "Avliyo Sergey" asarini olishimiz mumkin. Asarning bosh qahramoni "Avliyo ota (Stepan Kasatskiy)ning tasvirlab berilgan. Har bir inson tug'ilibdiki, qilayotgan ishidan, umridan mazmun va maqsad izlab yashaydi. Sergey ota timsolida, shu g'oya ilgari surilgan. Stepan Kasatskiy yoshligidan namunaviy yigit bo'lib kelgan, doim a'lo baholarga o'qigan, har qanday ishda ilg'or bo'lishni istagan va shunga erisha olgan. Kasatskiyning shunday bir xislati bor ham ediki, biror bir soha yoki fanni tanlardida, shuning ustida ter to'ka boshlardi. To uni maqtab, boshqalarga o'rnak qilib ko'rsatishmaguncha bir zum tinim bilmasdi. Zohiran Kasatskiy olg'a intiluvchan chinakam gvardiyachiga o'xshab ko'rinsa-da, biroq uning botinida murakkab va shiddatli tuyg'ular nish urardi. Bu tuyg'ular unga bolalikdan hamroh edi, ular xilma-xil bo'lsa-da, biroq mohiyati bir xil edi, ya'ni umr yo'lidagi barcha ishlarni shu qadar pishiq-puxta ado etib, go'zal yutuqlarga erishsin-ki, odamlar hayratdan yoqa ushlab qolsin. U bir soha yoki fanni tanlardida, shuning ustida ter to'ka boshlardi, to uni maqtash, boshqalarga o'rnak qilib ko'rsatishmaguncha bir zum tinim bilmasdi. Bir muvaffaqiyatga erishgach, u boshqasining payidan tushardi. Shunday qilib, fanlarni o'zlashtirishda korpusda birinchi o'ringa ko'tarildi, birdaniga fransuzchada so'zlashi yaxshi emasligini sezib qolib, bu tilni ona tili darajasida egallamagunicha tinchimadi va bunga ham erishdi. Shunday qilib, oradan vaqt o'tgandan keyin u shatranj bilan shug'ullana boshladi va korpusdalik vaqtidayoq a'lo darajada o'ynaydigan bo'ldi. Hayotidagi shohga va Vatanga xizmat qilish burchidan tashqari uning oldida yana boshqa bir maqsadlar ko'ndalang turardi, bu maqsadlar qay darajada kichik bo'lmasin, to ularni ro'yobga chiqarmaguncha o'shalar bilan yashardi. Biriga erishgach, tezda uning xayolida boshqasi paydo bo'lar va oldingisining o'rnini egallar edi. Bu oldiga

qo'yilgan maqsadga erishishdagi sa'y-harakatlar uning hayotini to'ldirar edi. Binobarin, zobitlik darajasiga yetgach, xizmat malakasini oshirishga jon-jahdi bilan kirishdi va tez orada, garchi o'zini tuta olmaydigan jizzakiligi xizmatda pand berib, yutuqlariga soya tashlab tursa-da, namunali zobit degan nomga sazovor bo'ldi. Keyin davra suhbatlarida dunyoviy bilimlarining chala ekanini sezib qolgach, kitoblar olamiga sho'ng'idi va bunda ham ko'zlagan maqsadiga erishdi. So'ng u kiborlar davrasida porlash fikriga tushib qoldi, birdaniga mahorat bilan raqs tushishni o'rgandi hamda tezda shunga erishdiki, uni oliy darajali kiborlarning ballari va ayrim tantanalariga taklif qiladigan bo'lishdi. Bir muvaffaqiyatga erishgach, u boshqasining payidan tushardi. Kasatsiy umri davomida bir qiz Korotkovani sevib qoladi. Ammo u shohning ma'shuqasi bo'lganligini bilganida, u murdadek oqarib ketadi. Qizning oldida toshdek qotib qoladi. Uyi tomon ketadi, ertasi kun kasal bo'lganligini bahona qilib ta'tilga chiqadi. Butunlay is'tefoga chiqadi, hech kimni ko'rmaslik uchun qishloqqa ketadi. Monastirga boradi va rohiblikni qabul qiladi. Sergiy tarki dunyo qilganining oltinchi yili qo'shni shahardan kelayotgan o'ziga toq boy oilalardan erkak va ayollar sayrga chiqishadi. Suluv beva Makovnika Kasatskiynikida tunab qolishi bilan boshqalar bilan garovlashadi. U uyga kirganda Kasatskiyga qarab: "Hozir boraman oldingizga"⁶, - deganda Kasatskiy ayolga qaramasdan dahlizga o'tib, o'tin yoradigan boltani qo'liga olib chap qo'lining ko'rsatgich barmog'ini chopib tashladi. Asarda o'quvchini larzaga soladigan payti uning o'z barmog'ini bolta bilan chopib tashlagan sahnasidir. Inson o'zini boshqarishi uchun nimalar qilmaydi, ammo Sergey ota ham Abdulla kabi o'zini yo'qotib, bir umr misqollab shakllantirgan e'tiqodini bir kunda bir xato tufayli qumdan yasalgan saroydek havoga sovuradi. U savdogar va uning qizi rejalashtirgan o'yinda mag'lub bo'ladi. Rohib sezdi, u yengildi.

"Avliyo Sergey" hamda olimlik va odamiylikni farqlovchi "Odam bo'lish qiyin" asarlarida yuz bergan voqealarning asl sababi qahramonlarning nafs oldida ojiz qolganidadir. Inson uchun eng katta sinov tashqi dushman emas, balki uning ichida yashovchi nafsdur. Uni yenga olgan kishi haqiqiy kuch egasiga aylanadi, aks holda esa bir lahzalik zaiflik butun hayot yo'lini o'zgartirib yuborishi mumkin. Shundan ko'rinadiki, har ikki asarda ham insonning asl mag'lubiyati tashqaridan emas, balki ichkaridan nafsdan kelishini isbotlab bergan. Shuning uchun bejizga: "Nafsini yengan haqiqiy g'olibdir", - deyilmagan. Bu ikki asar bosh qahramonlari -Abdulla, Sergey ota qanchadan qancha imtihonlarni a'lo baholarga topshirib eng zo'ri bo'lishgan bo'lsa ham, ulardan biri olimlikka da'vogarlik qilgan Abdulla hayotda odamiylik sinovidan o'ta olmadi. Hayotda yaxshi talaba bo'la olmadi. Sergey ota esa o'z nafsiga mag'lub bo'ldi. Zero, olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin.

⁶ Tolstoy L. Avliyo Sergey. Ziyoz.uz. – B.18.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarov O'. Odam bo'lish qiyin. – Toshkent: Turon zamin, 2023. 253 b.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.1-jild. – Toshkent, davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 2300 b.
3. Jahon nasri antologiyasi. Lev Tolstoy. – Rossiya: 2018. 23 b.
4. Tolstoy L. Avliyo Sergey. Ziyoz.uz. 60 b.